



## ALEKSANDR FAYNBERG SHE'RLARIDA POLISEMIYA

Aziza Zoyirova

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Kompyuter lingvistikasi yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: p.f.n., prof. Shaxlo Shukurlaevna Yuldasheva*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15041858>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Aleksandr Faynberg she'riyatida polisemiya hodisasi lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. She'riy matn konteksti doirasida so'zlarning ko'p ma'nolilik xususiyati, ularning poetik ifodalilikni oshirishdagi o'rni yoritgan. Tadqiqot davomida Faynberg asarlaridan tanlangan misollar asosida polisemiya turli kontekstlarda qanday namoyon bo'lishi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** polisemiya, she'riy leksika, Aleksandr Faynberg, poetik til, metafora, ko'chma ma'no

**Kirish.** Tilshunoslik va adabiyotshunoslikda polisemiya hodisasi keng o'rganilgan bo'lib, uning badiiy matndagi o'rni alohida ahamiyat kasb etadi [2]. She'riyatda so'zlarning ko'p qirralilik xususiyati tasviriylikni oshirib, o'quvchiga yanada chuqurroq ma'no anglash imkonini beradi. Aleksandr Faynberg she'riyatida bu hodisa poetik ifodalilikning asosiy unsurlaridan biri hisoblanib, u bevosita va ko'chma ma'nolar uyg'unligida namoyon bo'ladi.

Mazkur maqolada Faynberg ijodida polisemiya qanday namoyon bo'lishi va uning badiiy matndagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy e'tibori so'zlarning poetik kontekstda qaysi ma'nolarda qo'llanilishiga qaratilgan.

**Metod va usullar.** Tadqiqot davomida lingvistik semantik tahlil, lingvopoetik tahlil hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Faynbergning turli mavzulardagi she'riy asarlari tanlab olinib, ularning leksik-semantik xususiyatlari o'rganildi. Ruscha matnlar bilan o'zbek tarjimalari o'zaro solishtirilib, ularning polisemiya nuqtayi nazaridan qanday tarjima qilingani tahlil qilindi.

**Natijalar va muhokama. Polisemiya va uning poetik ifodasi.** She'riy matnda polisemantik so'z bir vaqtning o'zida bir nechta ma'no anglatishi bilan ajralib turadi. Masalan, Faynbergning quyidagi misolida bu hodisa yaqqol ko'zga tashlanadi:

**Asliyat:**

Ну, зеркала! Сплошное неприличие.  
Весь мир кривой. И все наоборот.

**O'zbekchada:**

Xo'sh, ko'zgu! Naqadar beadablik bu,  
Butun dunyo qiyshiq, telba-teskari.



Bu misolda *ko'zgu* (зеркало) so'zi ham fizik narsa sifatida, ham insonning ichki dunyosini aks ettiruvchi poetik timsol sifatida qo'llangan. Polisemiya tufayli so'z ma'noviy boylik kasb etib, o'quvchining matnni anglash jarayonini kengaytiradi.

**2. Kontekst va ma'no o'zgarishi.** She'riy matnda so'zning ma'nosi kontekstga qarab o'zgaradi. Quyidagi misolda bu hodisani kuzatish mumkin:

**Asliyat:**

*На землях этой сдвинутой страны  
лишь тени от Любви, Надежды, Веры. [1]*

**O'zbekchada:**

Qo'zg'algan mamlakat bag'rida  
Sevgi, Umid, Ishonch soyasi faqat.

Bu misolda *soya* (тень) oddiy jismoniy tushuvchi soya emas, balki o'tmish yodgorligi, inson xotiralari, hayot izlari ma'nosida qo'llanilgan. Kontekst so'zning asosiy ma'nosini kengaytirib, poetik obraz yaratishga xizmat qiladi.

**3. Polisemiya va metafora.** Faynberg ijodida metaforalar keng qo'llanilib, ular polisemiya bilan bog'liq holda matnni yanada badiiylashtiradi. Misol tariqasida quyidagi satrni ko'rib chiqamiz:

**Asliyat:**

*Я с весны уж на кладбище не был.  
Вдруг увидел, ступив за порог,  
Что не снег это падает с неба,  
А единственный мамин платок. [1]*

**O'zbekcha tarjima:**

*Ko'klam o'tdi — qabristonga kelmadim,  
Bo'sag'ada ko'zim tushdi nogohon  
Ko'kdan tushayotgan qormas, bilmadim,  
Onamning ro'moli edi shodumon. (Oygul Suyundiqova tarjimasi). [4]*

Bu misolda *ro'mol* (слова) oddiy buyum sifatida emas, balki inson xotiralari, yo'qolgan hayot izlari timsoli sifatida ifodalangan. Bu kabi metaforik qo'llanish polisemiya bilan bog'liq holda poetik tasvirni yanada boyitadi.

**Xulosa.** Aleksandr Faynberg she'riyatida polisemiya badiiy ifodalilikning muhim unsurlaridan biri hisoblanadi. U so'zlarning kontekstga bog'liq holda turli ma'nolar kasb etishini ta'minlab, she'riy tasvirni yanada chuqurlashtiradi.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Faynberg ijodida polisemiya quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi: bevosita va ko'chma ma'nolarning uyg'unligida; poetika va semantika o'zaro bog'liqligida; kontekst orqali ma'no dinamikasining yuzaga kelishida.

Bundan tashqari, uning she'riyatida polisemiya va metafora bir-birini to'ldiruvchi hodisalar sifatida qaralishi mumkin. Bu esa she'riy til imkoniyatlarini yanada kengaytiradi hamda o'quvchi uchun ko'p qirrali ma'no ifodasini ta'minlaydi.

Kelajakda Faynberg ijodida polisemiya bilan bog'liq boshqa lingvistik va stilistik jihatlarni yanada chuqurroq o'rganish, tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan polisemiya qanday aks etishi ham alohida tadqiqot mavzusi sifatida dolzarbdir.

#### Adabiyotlar ro'yxati

1. Файнберг А. Вольные сонеты. – Ташкент: Фафур Фулом, 2019.
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2010.
3. Мусурман Р. Для слез нужны простые зеркала.  
<https://www.ziyouz.uz/ru/publitsistika/literaturovedenie/1364-rustam-musurman-dlya-slez-nuzhny-prostye-zerkala>
4. Александр Файнберг. <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/rus-sheriyati/aleksandr-faynberg/>